



O'ZBEKITONNING 1970-1991 YILLARDAGI IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTI. ANDIJON, NAMANGAN, FARG'ONA MISOLIDA.

Ilmiy rahbar: Xojamberdiyev Xurshidbek Egamberdiyevich (Phd)

Andijon davlat universiteti

Tarix fakulteti 2-kurs talabasi

Oboqulov Nurulloh Nasibullayevich

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mustaqillikkacha bo'lgan davrda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi jarayonlar va o'zgarishlar haqida mulohazalar qilingan.*

Kalit so'zlar: *Jadidlar, ta'lim tizimi, o'zbek ishi, ijtimoiy siyosiy hayot, qayta qurish.*

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globalashuv jarayonlari davlatchilik tarixi, uning rivojlanish istiqbollari, shuningdek, har bir xalq va millatning yuksalishida o'ziga xos muhim omil bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy sohasini tadqiq etish zarurligini ko'rsatmoqda. Xususan, sovet hokimiyati yillaridagi iqtisodiyot va ta'lim, uning faoliyati, mutaxassislar salohiyati, turmush darajasi, kundalik hayoti, ish haqi ko'rsatkichlari kabi masalalarni tadqiq etish tarixining mazkur davriga daxldor o'ziga xos muammolarni to'laqonli o'rganishda yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning bir qator yetakchi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida ijtimoiy sohasi tarixiga doir salmoqli ilmiy ishlar qilinmoqda. Xususan, Finlandiya, Shvetsariya, Germaniya, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi kabi mamlakatlarning ilmiy markazlarida ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy sohasi va unda faoliyat olib borgan fidoiy insonlar hayot yo'lini obyektiv va to'laqonli yoritish masalalari tadqiq etilgan. Ayniqsa, jamiyatning eng faol ijtimoiy qatlamlaridan biri bo'lgan - o'qituvchilarning mamlakat rivojida o'rnini, kundalik hayoti tarixi masalalarini tadqiq etishga qiziqish va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar kasb egalari faoliyati to'g'risidagi ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, o'rganilayotgan tarixiy davrning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayoti yuzasidan xolis ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Chunki mamlakatimiz hududida 1970-1991 yillar mobaynida asosan mehnat, paxta ishi kabi qora ishchilik tendensiyasi ilgari surilgan edi. Barcha sohalarning tomir ildizi bo'lgan ta'lim sohasiga berilgan etibor batamom susaygan edi.

ADABIYOTLAR SHARHI

XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holatlar vujudga keldi.

1980-yillarning boshlarida sovet siyosiy tizimi, xo'jalik yuritish usuli o'zining rivojlanish imkoniyatlarini batamom tugatdi.



Ma'muriy-siyosiy biqirlilik kuchaydi, jamiyat a'zolari mehnat intizomi pasaydi, loqaydlik, befarqlilik kuchaydi.

80-yillar o'rtalarida sovet jamiyatida "qayta qurish" boshlandi. Qayta qurish haqida M. S. Gorbachev KPSS MK ning aprel (1985 yil) plenumida taklif kiritdi.

Sobiq Ittifoqning XX asrning 70–80 yillari tarixi “qayta qurish” siyosatchilari tomonidan “turg'unlik” davri deb ataldi. Albatta, bu davrdagi turg'unlik holati turli tarixchilar o'rtasidagi o'zaro bahs-munozaralarga sabab bo'l sa-da, O'zbekiston milliy tarix fani nuqtai nazaridan baho laganda, mazkur turg'unlik mavjudligini e'tirof etgan yoki unga qarshi nuqtai nazarda turgan tarixchi olimlar fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki bu davrda iqtisodiy rivojlanish sohasida turg'unlik alomatlari ko'zga yaqqol tashlanmasa-da, ijtimoiy-siyosiy sohadagi turg'unlik aniq va ravshan tarzda o'zini namoyon etgan edi.

XX asrning 60–80 yillarida partiya “rivojlangan sosia lizm”ga erishish uchun o'zining barcha imkoniyatlarini ishga soldi, ommaviy axborot, targ'ibot-tashviqot vositalari xalq ommasi ongiga “rivojlangan sosializm” bosqichida sosia lizm o'zining eng yuqori fazasiga erishadi, bu davrda sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va texnika, madaniyat-ma'rifat im kon darajada rivojlanadi, xalqning turmush darajasi mun tazam oshib boradi, sovet kishilarining yangi “sosialistik turmush tarzi” shakllanadi, degan soxta, amalga oshirib bo'l maydigan g'oyalarni singdirishga harakat qildi.**TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

XX asrning ikkinchi yarimining oxirlariga kelib respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida inqirozlar paydo bo'la boshladi. Ushbu yillarda SSSRning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida inqirozli vaziyatning yanada keskinlashuvi ro'y bera boshladi. Qayta qurish kontsepsiyasi cheklangan bo'lib, u SSSRni taraqqiyotini ta'minlay olmas edi. Qayta qurish yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayot yomonlashdi. Respublikada milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar toptaldi, buning oqibatida xalq orasida loqaydlik, ishonchsizlik va norozilik kuchaydi.

Farg'ona fojeasi yuz berdi. Milliy o'zlikni anglash boshlandi. O'zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi, paxta yakkahokimligini tugatilishi, ekologik holatni sog'lomlashtirishni O'zbekistonda dolzarb masala sifatida ko'tarildi.

NATIJALAR

1970-1980 yillarga kelib sobiq ittifoqning iqtisodiy ijtimoiy hayotida, rivojida salbiy holatlar yuzaga kelganligini kuzatish mumkin bo'ladi. Rivojlanishda bir joyda deysinib qolish davri boshlangan bo'lib, bu yillar tarixda turg'unlik yillar degan nom oldi. Natijada barcha Respublikalar qatori bizning yurtimizda iqtisodiy ijtimoiy rivojlanish sekinlashdi, ichki muammolarni sub'ektiv va valyuntaritiv tarzda hal etilishi ziddiyatlarni yanada kuchaytirdi va tenglikka olib kela boshladi. Uning asosiy sabablari quyidagilar edi.

1. Butun ittifoq singari respublikamizda ham ma'muriy buyruqbozlik boshqaruvining kuchayishi va totalitar tuzumning o'rnatilganligi.



2. Xalq xo'jaligini boshqarishning o'ta markazlashtirilishi va jumhuriyatlar manfaatlarining hisobga olinmaganligi.

3. 60-yillarning o'rtalariga kelib xalq xo'jaligi barakasiz rivojlanish imkoniyatlarining tugaganligini hisobga olib uning jadal rivojlanish davriga o'tkazilmaganligi.

4. Respublikamizning ittifoq xom-ashyo bazasiga aylanib qolishi va paxta yakka hokimligining o'rnatilishi.

5. Ijtimoiy masalalarga qoldiq tamoyili asosida qaratilishi. 6. Tabiatga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lmaganligi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga asoslangan yangi iqtisodiy munosabatlarni vujudga keltirish va ularni izchil huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonunchilik bazasini yaratish hisoblanadi.

O'zbek xalqining milliy ozodlik kurashi 30-yillarning o'rtalariga kelib sovetlar saltanati kuchlari tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgan bo'lsada, xalqimizning qalbida, uning ongi shuurida istiqlol uchun, mustaqillik uchun mustamlakachi. kelgindi zolimlarga qarshi kurash g'oyasi zarracha bo'lsada so'ngan emas. Bu kurash dahshatli jahon urushi yillari (1939-1945) da ham, urushdan keyingi davrda ham turli ko'rinish, shakl va usullarda, goh ochiqchasiga, goh yashirincha olib borildi. Ayniqsa bu kurash 80-yillarda o'zining yangi bosqichiga kirdi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Yurtimizda o'tgan yillar davomida bozor iqtisodiyoti sohasidagi o'zgarishlarning ishonchli qonunchilik bazasini shakllantirish borasida amalga oshirilgan ulkan ishlar hech kimga sir emas, albatta. Bularning barchasini e'tirof etgan holda, mavjud qonunlarimizning ko'pchiligini ularni qo'llash amaliyoti va mamlakatimizda bozor munosabatlarini rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqib, jiddiy qayta ko'rib chiqish zarur". Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o'z fikrlarida Markaziy Osiyo hududidagi yirik qadimiy davlatlar ya'ni Baktriya, Kushon kabi kuhna davlatlar tarixi, Dalvarzintepa, Kampirtepa, Zartepa qal'asi singari noyob yodgorliklar bu yerda qadim zamonlarda ham yuksak taraqqiyot mavjud bo'lganini isbotlaydi.

1989-yildan e'tiboran O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov hokimiyat tepasiga kelgach, uning siyosiy jasorati va kuchli vatanparvarlik, millatparvarlik his-tuyg'ulari tufayli bir qator ijobiy o'zgarishlar ro'yobga chiqarildi va bu mamlakatda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy tanglikni ma'lum darajada bo'lsada yumshatdi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi so'zlari bu borada e'tiborlidir: «Umuman, men birinchi kotib etib saylanganimda, O'zbekiston xalqi ruhiy shikasta holatida edi. Demak, ishni ruhiyatni tuzatishdan boshlash kerak.

XULOSA VA MUNOZARA



Farg'onadan so'ng Andijon, Namangan Toshkent, Samarqand, , Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatlarida ham xalq g'alayonlari bo'ldi. Ammo bu g'alayonlarning oldi olindi. Farg'ona voqealari xalqimizga katta va achchiq hayotiy saboq berdi.

Birinchidan, xalqimiz chorizm mustamlakachi saltanati va sovet mustabid saltanati o'rtasida hech qanday farq yo'qligini, har ikkalasi ham o'zbek xalqining milliy dushmani ekanligini aniq -ravshan tushundi.

Ikkinchidan, katta tajribaga ega bo'lgan dushmanga qarshi kurashda milliy istiqlochlilar tajribasizlik qildilar. Kurash asosan stixiyali tarzda olib borildi, ularda siyosiy kurash madaniyati yetishmadi, xalqimiz dushmanga qarshi kurashda yakdil bo'laolmadi, milliy birlik bo'lmadi. Xalqning ma'lum bir qismi hali ham mustamlakachilarga ishonar edi. Milliy birlikni ta'minlay olmadi. Umumiy dushmanga qarshi kurashda birlasholmadi.

Uchinchidan, mustamlakachilarga qarshi kurashda xalqni o'z orqasidan ergashtira oladigan, nazariy-ilmiy asoslangan dasturga ega bo'lgan siyosiy tashkilot bo'lmadi.

To'rtinchidan, 80-yillar oxirlaridagi voqealar mamlakatda ijti- moy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda zudlik bilan sifat o'zgarishlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. X.XODJAMBERDIYEV. O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-SIYOSIY JARAYONLAR TARIXI (1970–1991 yillar. Toshkent «» 2022
2. Abdulla Avloniy. O'son millat / Istiqlol fidoyilari. – Toshkent: Sharq, 1993.
3. A'zamxo'jayev S. S. Turkiston Muxtoriyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
4. Vatan fidoyilarining hayoti va merosini o'rganish, xotirasini abadiylashtirish doimiy e'tiborda // Xalq so'zi. 2021 yil 1 sentyabr.
5. Jadid teatri tarixidan / "Salohiyat-Mezon". Ilmiy to'plam. – Namangan, 2012. – №2. – B. 18–21.
6. Rajabov Q. K. Jadidlar – istiqlochlilik harakatining g'oyaviy rahnamolari / O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. – Toshkent: Eldinur, 1998. – B. 11–24.
7. Fan va turmush. – □□ Turkistonda xalq respublikai 1990. – №7. –B. 8–10.